

## MUMTOZ ADABIYOT FENOMENI

Abduvali Axatov,  
SHDPI tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada buyuk mutafakkir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy hayoti va ijodi xususida so'z yuritilib, shoirning Bobur ta'biri bilan aytganda "tili Andijon shevasi bilan rost" bo'lgan shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, "Nizomiddin" – "din nizomi", mansab egalariga nisbatan aytilgan "mir", "amir" so'zlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** shoir, nizom, so'z, lutf, g'azal, asar, metod, ruhiyat.

**Annotation.** The article talks about the life and work of Alisher Navoi, a great thinker, scientist, musician, artist and statesman, the founder of the Uzbek literary language. Nizamiddin Mir Alisher Navoi, "Nizamiddin" - "religion of religion", the words "mir" and "amir" used in relation to office holders are analyzed.

**Key words:** poet, rule, word, grace, ghazal, work, method, spirit.

**Аннотация.** В статье рассказывается о жизни и деятельности Алишера Навои, великого мыслителя, учёного, музыканта, художника и государственного деятеля, основоположника узбекского литературного языка. Низамиддин Мир Алишер Навои, "Низамиддин" - "религия религии", анализируются слова "мир" и "амир", употребляемые по отношению к должностным лицам.

**Ключевые слова:** поэт, правило, слово, благодат, газел, произведение, метод, дух.

Hazrat Alisher Navoiy ijod bo'stoni rang-barang tutfa inkishoflar bilan bezatilgan. Bo'stondagi ajoyibotlarini kashf etish bizdayin yoki sizdayin, balki barchamiz uchun bir lazzatlanish ilhomlaridir. Bilmadim, biz qanchalik ajoyibotlarni, turfa xilliklarni, inkishaflarni qandayin anglashimiz kerak. Eng avvalo, Navoiy Hazratlari she'riyat Ummonlarining g'avvoslari bo'lishimiz darkor. Teran anglash, kashf etish, izlanishda, harakatda, ya'ni o'qish va izlanishda bo'ladi,

Alisher Navoiyning yuqoridagi lirik, ilmiy-me'muar, didaktik, diniy asarlaridan tashqari yo'nalishda ham bitilgan. "Xamsa" dostonlari ham mavjud.

Navoiy "Xamsa"si XV asrdagi xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining ko'zguvidir. Asarda o'sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlari, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan.

Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye"<sup>1</sup> asarida yozilishicha, Navoiy o'z "Xamsa"sinini tugatib, Husayn Boyqaroga taqdim etganda, shoh undan qattiq hayajonga tushgan. Husayn Boyqaro shoirni oq otiga mindirgan va unga jilovdorlik qilgan. Bu voqeadan ta'sirlangan Navoiy hushidan ketgan ekan.

<sup>1</sup> Norqulov N., Sodiqiy S., tarjimalari

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Navoiyning sevib o‘qigan shoirlari Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy edi. Navoiy bu ustozlari haqida o‘zining “Xamsa”sida shunday yozadi:

Kichik erkanimdin bo‘lib qoshima,  
Ulug‘ muddao soldingiz boshima.

Navoiyning quyidagi misralar bilan boshlanuvchi o‘giti Badiuzzamonga qaratilgan:

Shohki ish adl ila bunyod etar,  
Adl buzuq mulkni obod etar.  
Oz ish uchun tund itob aylama,  
Qatl-u siyosatda shitob aylama.

Jami 51230 misradan iborat bo‘lgan Navoiyning “Xamsa”si 1483-1485-yillarda yozilgan bo‘lib, 5 dostonidan iborat. Ular quyidagilar:

1. “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”, 1483, 7976 misra, 3988 bayt, 63 bob sori’ bahrida yozilgan)<sup>2</sup>.
2. “Farhod va Shirin” (1484, 5782 bayt, 59 bob, hazaj bahrida yozilgan)<sup>3</sup>.
3. “Layli va Majnun” (1484, 3622 bayt, 36 bob, Aruzning hajaz bahrida yozilgan).
4. “Sabbayi Sayyor” (1484, 5000 bayt, 38 bob, Aruzning hafif bahrida yozilgan).
5. “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devoni”, 1485, 7215 bayt, 89 bob, Aruzning mutaqorib bahrida yozilgan)<sup>4</sup>.

Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari quyidagilar:

“Chihil hadis” - “Arba’in” (“Qirq hadis”) – bu asar hadislarning she’riy tarjimasi bo‘lib, 886 (milodiy 1486)-yili yaratilgan. Shoir Payg‘ambarimiz sollohu alayhi vassalomning hadislarini avval arab tilida beradi va uning tarjimasini she’riy usulda taqdim etadi. Asar jami 40 hadis sharhini o‘z ichiga oladi, uning umumiy hajmi 108 baytdan iborat.

Masalan:

Mo‘min etmastur, ulki iymondin  
Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay,  
Toki qardoshig‘a ravo ko‘rmas  
Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay.

Demak, ushbu she’riy sharh, Payg‘ambarimizning o‘zingga ravo ko‘rgan (ya’ni yaxshi narsani) birovga ham ravo ko‘r, hadislari asosida sharhlangan. Arabiy shakli: La yu’minu ahadukum hatta yahibbu la ahlihi ma yuhibu li nafsihi.

<sup>2</sup> A.Navoiy. Hayrat ul-abror., - T.: “G‘G‘Ulom”, 2006.

<sup>3</sup> Qosimov B. Adabiyot. 10-sinf darslik., - T.: “O‘qituvchi”, 2004., 205-bet.

<sup>4</sup> Qosimov B. Adabiyot. 10-sinf darslik., - T.: “O‘qituvchi”, 2004., 229-bet.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Yana bir o‘rinda Alisher Navoiy Hazratlari “Arba’in” asarlarida dunyo shunday ta’riflanadi:

Dunyovu har ne ondadur mavjud,  
Bo‘ldi haq la’nati giriftori.  
G‘ayri haq zikrikim, erur zokir,  
Tengrining rahmati sazovori.

Hadisi: Ad-dunyo mal’unatun va mal’unun ma fiyna illa zikrallohu taolo. Demak, dunyo qalbdada emas, qo‘lda bo‘lishi aytib o‘tilgan. Chunki dargohi qalb Allohga xos, shuning uchun ham zikrallohu taolo deyilyapdi.

Haq seni sevgay el bila bo‘lsang,  
Til-u ko‘nglingni qilib yakro‘y.  
Nukra sursang shukuftayi xandon,  
Zist qilsang kushodayi xushro‘y<sup>5</sup>.

Hadisi: Innalloha yuhib us-sahl al-talqa.

Alisher Navoiy Hazratlari o‘zlarining baytlari bilan shunday izohlaydilar:

Odami ersang, demagil odamiy,  
Onikim yo‘q xalq g‘amidin ga’ami.

Yoki:

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,  
Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish<sup>6</sup>.  
Yaxshi so‘z birla hojat ahlin so‘r,  
Bermasang yaxshi to‘madin nafaqa.  
Ne uchunkim rasul qavli bilan-  
Yaxshi so‘z bordur uylakim sadaqa.

Hadisi: Al-kalimat ut-tayyibatu sadaqatun.

Alisher Navoiy Hazratlari “Sabbayi Sayyor” dostonining 5-bobida so‘zga yuksak baho berib, shunday yozadi:

So‘z kelib avval-u, jahon so‘ngra,  
Ne jahon, kavn ila makon so‘ngra...

1. “Vaqfiya” asari 1481-1482-yillar oralig‘ida yaratilgan bo‘lib, Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, vaqf qildirgan yerlari, qoldirgan binolari haqida ma’lumot beriladi. Asarning asosiy qismini shartli ravishda 2 qismga bo‘lish mumkin:
2. Navoiyning Sulton Husayn Bayqaro saroyidagi davlat arbobi sifatidagi faoliyati aks etgan o‘rinlar.

<sup>5</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/alisher-navoiy-ARBAIN-QIRQ-HADIS.html>

<sup>6</sup> A.Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 1-devon., G‘aroyib us-sig‘ar. – T.: “Tamaddun”, 2011.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

3. Navoiyning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari; vaqfiya joylaridagi idora usuli, xizmat uchun belgilangan lavozimlar, tayin etilgan maosh, o‘rnatilgan tartib-qoidalar bayoni.
4. Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari nasriy usulda yozilgan muqaddima va Hazrati Alining 255 raqam (ba’zi manbalarda 266) ostida tartiblangan arab tilidagi o‘gitlarining turkiy tilda ruboiy shaklida berilgan talqinidan iborat.

Asar o‘ziga xos tuzilishga ega. Dastlab, Hazrat Alining arab tilidagi falsafiy o‘gitlari keltiriladi, so‘ngra turkiy tilda ruboiy shaklidagi talqin beriladi.

1. Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlar nuri”) asari sof diniy yo‘nalishda bo‘lib, islom dini ahkomlarini yaratishga bag‘ishlangan. Asar masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, hajman 197 baytdan iborat.
2. “Risolayi tir andoztan” risolasi har bir fikrning sof diniy dalillar – hadis va rivoyatlar ila izohlanganligi bilan alohida xarakterlanadi. Risola hajman kichik, muallif bunda kamondan o‘q uzishning qanchalik savobli amal ekanini asoslashga e’tibor qaratadi.

Risolada bir nechta hadis va rivoyatlar keltirilgan. Navoiy kamondan o‘q otishning qanchalik savobli amallardan ekanligiga asosiy urg‘uni beradi. Bu bejiz emas, chunki o‘rta asrlarda yurt himoyasi askarlarning fidoyi va jasurligi hamda bevosita qurollarni, ayniqsa, kamonni mahurat bilan ishlata bilishi bilan ta’minlangan. Mazkur asar Vatan himoyasiga chog‘langan yigitlarbi o‘z ishlarining Tangri va payg‘ambar tomonidan sevilgan, ma’qul ko‘rilgan amal ekanligiga ishontirishga hizmat qilgan.

1. “Nasoyim ul-muhabbat” (to‘liq nomi “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat” – “Mardlik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabodalari”) asari Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot il-quds” (“Do‘stlik tarovati”) asarining ijodiy tarjimasidir. Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarida 616 ta shayx haqida ma’lumot keltirilgan. Hazrat Navoiy bu ma’lumotlarni qayta ishlab, to‘ldirib, shayxlar sonini 770 taga yetkazadi, ulardan 35 tasini avliyo ayollar tashkil etadi.
2. “Munojot” – Allohga iltijo tarzida yaratilgan nasriy asar, “Hamd”, “Na’t” va “Munojot” deb atalgan 3 qismni o‘z ichiga oladi. “Hamd” da Allohning buyukligi, abadiyligi haqida so‘z borsa, “Na’t” da payg‘ambarimiz Rasuli akram ta’riflari keltiriladi. Asarning “Munojot” qismi bevosita shoirning Allohdan najot so‘rab qilgan iltijolariga bag‘ishlangan. Asarning har bir jumlasini Allohga murojaat, ya’ni “Iloh” so‘zi bilan boshlanadi. Navoiy o‘zini behad gunohkor, Yaratganni pok va akram (karamli), o‘zini cheksiz isyonkor,

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Xoliqni rahmli va mehribon deb atar ekan, ichki qofiya, tazod, ishtiyoq san’atlarining betakror namunalri shoir his-tuyg‘ulari bolan uyg‘unlik kasb etganligini ko‘ramiz.

Ushbu asarni ta’riflash jarayonida Dilnavoz Yusupovning 3 xil munajat ta’riflarida ko‘rish mumkin:

“Xamsa” munajotlarni yoshlari (ya’ni Alisher Navoiy) 40-44 yoshlari o‘ralig‘idagi bitik deyilgan, “Lisonut ut-tayr” va “Munajat” asarlaridagi yoshlari 59-60 yoshlari oralig‘idagi yozilgan deyilgan.

Xususan, “Munajat” asarida shunday ta’riflanadi:

Ilohi, o‘z luk yomonlig‘idin o‘z lugum bila o‘ta olmaydurmen va yaxshilarning etagin yomonlig‘im uyotdin tuta olmaydurmen...

Ilohi, men tavba qildim degandim ne sud,

Sen tavba bergilki, ham Tavvob sen-u ham Ma’bud.

“Navoiyning nasrda yozilgan eng qisqa va eng go‘zal asari “Munajat”dir. U shoirning boshlang‘ich murojaati. Bu asar ma’naviy boshlang‘ich bo‘laklardan so‘ng lirik qahramon yuragidagi chuqur va ta’sirli kechinmalar izhoridan iborat”<sup>7</sup>, - deyiladi.

Matnda deyidilar: “Iloho, yomonligimdin agarchi ko‘p alamim bor”, “G‘amxo‘ri sen bo‘lsang, ne g‘amim bor”<sup>8</sup>.

Asar nihoyasi munajoti podshohi islomni, ya’ni Sulton Xusayn Bayqaro musulmlar boshiga bardavom etmoq tilagi bilan yakunlangan.

Navoiyning “Munajat” asari sevgi, ezgulik, chin e’tiqodni ulug‘lovchi va sharafllovchi bebaho va go‘zal ijod namunasidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash‘orlar. – T.: “Sharq”, - 2014. 272 bet.
2. A.Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 1-devon., G‘aroyib us-sig‘ar. – T.: “Tamaddun”, 2011. 725 bet.
3. Qosimov B. Adabiyot. 10-sinf darslik., - T.: “O‘qituvchi”, 2004., 398 bet.
4. A.Navoiy. Hayrat ul-abror., - T.: “G‘G‘ulom”, 2006.
5. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
6. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.

<sup>7</sup> Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash‘orlar. – T.: “Sharq”, 243-244-betlar

<sup>8</sup> Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash‘orlar. – T.: “Sharq”, 243-244-betlar

## **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

7. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 415-419.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
9. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-SBİN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
10. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.20 (2024): 68-78.
11. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(03), 1-6.